

P-96



BALIQCHI VA BALIG
HAQIDA ERTAK

**ALEKSANDR
PUSHKIN**


YANGI ASR AVLODI
TOSHKENT
2018

So‘zboshi o‘rnida

YANGI RUS ADABIYOTINING ASOSCHISI

Ulug‘ rus adibi Aleksandr Sergeyevich Pushkin 1799-yil Moskvada tavallud topgan. Otasi Sergey Lvovich qadimiy dvoryanlar avlodidan, gvardiya ofitseri bo‘lib, fransuzcha she’rlar yozib turardi. Onasi Nadejda Osipovna Pyotrning tarbiyasida bo‘lgan habash A.P.Gannibal (asli ismi Ibrohim)ning nevarasi edi. Ota-onasi yosh Pushkinni buvisi Marya Alekseyevna va enagasi Arina Rodionovna tarbiyasiga topshirgan. Uning amakisi Vasiliy Lvovich o‘sma davrning ko‘zga ko‘ringan shoirlardan bo‘lib, Pushkinlarnikiga taniqli ijodkorlar tez-tez mehmon bo‘lib turishi odatga aylangandi. Bu muhit Pushkinda she’riyatga havas uyg‘otdi. 1811–1817-yillarda u Sarskoye selodagi lit-seyda ta’lim olgan yillarida (1814-yil) dastlabki she’ri matbuotda bositgan edi. 1833-yil dekabrida Nikolay I Pushkinni kamer-yunker qilib tayinlagan. 1837-yilda yosh fransuz ofitseri Jorj Dantes bilan duelda Pushkin og‘ir yaralanib, vafot etadi.

A.S.Pushkin xalq og‘zaki ijodini bolalikdan berilib o‘rgandi. Buloqdek qaynab-toshgan xalq og‘zaki ijodi shoirning ilhomiga ilhom qo‘shdi. Kelajakda mashhur shoir bo‘lib, jahonga tanilishida boy manba vazifasini o‘tadi. U, ayniqsa, o‘zining ertak-dostonlari bilan yosh kitobxonlarning hurmat-olqishiga sazo-

vor bo'lib kelmoqda. A.S.Pushkin oddiy, mehnatkash xalqni yaxshi ko'radi. Buni adibning asarlari misolida, ertak-dostonlarida his qilish mumkin. Ya'ni Pushkin satrlarida xalqqa bo'lgan cheksiz hurmat tuyg'usi barq urib turadi.

«Baliqchi va baliq haqida ertak» (1833) dostonida shoir pok muhabbat mangu bo'lishini orzu qiladi. Boylik, mansab deb o'tgan kunni unutmaslikni istaydi. Bundan tashqari, kimki halol peshona ter to'kib boylik orttirsa, birovlar hisobiga boyiydigan bo'lsa, bu boylik hech qachon yuqmasligini, birovniki birovnikiligicha qolib ketishini kampir qismati bilan chog'ishtirib hikoya qiladi. Yer yuzi, butun olam hukmroni bo'lib olgan kampir cholni mensimaganligi uchun ochko'z va badbaxtligicha qolib ketaveradi.

«Pop va uning xizmatkori Balda haqida ertak»dagi (1831) Pop obrazini shoir juda mahorat bilan ko'rsatib berdi. Tekinxo'r, ochko'z, o'zgalar hisobiga umr kechiradigan pop, aslida pastkash kimsa ekanligini keskin ochib tashlaydi. Unga qarama-qarshi obraz – oddiy va halol, mehnatkash va bahodir yigit Balda obrazini ijod cho'qqisiga ko'taradi.

Rostgo'y, haqiqatni yoqlovchi shoir «O'lik bekach va yetti bahodir haqida ertak» (1834), «Shoh Sultan haqida ertak» asarlarida haqiqat bir kun emas bir kun o'z o'rnini topadi, hamma baxtli bo'ladi, degan fikrni ilgari suradi.

A.S.Pushkin bolalarning ona Vatanga, tabiatga, odamlarga mehr-muhabbatini oshiradigan ko'plab she'rlar yozdi. «Qish ertasi», «Dengizcha», «Men yana keldim», «Enagamga», «Bulut», «Anchar», «Tutqun» kabi she'rlar shular jumlasidandir.

Pushkinding ko‘plab asarlari o‘zbek tiliga tarjima qilingan. Masalan, «Boris Godunov», «Dubrovskiy», «Kavkaz ‘asiri» Cho‘lpon tomonidan (1936–1937), «Yevgeniy Onegin» Oybek tomonidan (1937), «Boq-chasaroy fontani» Usmon Nosir tomonidan (1937), «Kapitan qizi» Abdulla Qahhor tomonidan (1939), «Ruslan va Lyudmila» Mirtemir tomonidan (1948) tarjima qilingan va bu asarlarning barchasi o‘zbek kitobxonining ham sevimli mulkiga aylanib bo‘lgan.

Muharrirdan

BALIQCHI VA BALIQ HAQIDA ERTAK

Otgan chog'da dengiz bo'yida
Cho'l va kampir umr surgandi.
Yerto'lada – eski uyida
O'ttiz uch yil birga turgandi.
Chol to'r solib ovlarkan baliq,
Kampir esa yigirar urchuq.
Chol dengizga to'r soldi bir gal,
Baqa yaproq ilindi yolg'iz.
To'r solganda chol ikkinchi gal,
Ilindi-ku dengiz o'lani.
To'r solganda chol uchinchi gal,
Chiqib keldi bir chavoq baliq,
Jo'n baliqmas, naq oltin baliq.
Oltin baliq xuddi odamday,
Tilga kirib, yolvorib qoldi:
«Qo'yib yubor dengizga, bobo,
Katta to'lov to'layman senga.
Ko'ngling ne tilasa, bergayman».
Hayron bo'ldi chol, qo'rqib ketdi,
Rosa o'ttiz uch yil ovladi baliq,
Ammo baliq so'zlaganin u
Eshitmagan edi umrida.
Chol baliqni qo'yib yubordi,
Shunday dedi unga mehribon:
«Oltin baliq, tangri yor bo'lsin,
Kerak emas menga to'loving,

Mayli tushgil zangor dengizga,
Erkin-erkin o'ynab yuraver!»
Chol qaytdi-da kampir yoniga,
Aytdi shundoq qiziq mo'jiza:
«Tutib oldim bugun bir baliq,
Jo'n baliqmas, naq oltin baliq.
Baliq tilga kirib so'zлади,
Ko'п yalindi qo'yib yubor, deb.
O'z uyiga – yashil dengizga.
Katta to'lov to'layin, dedi.
Ne istasang berayin, dedi.
Men olgani botinolmadim,
Qo'yvordim zangor dengizga».
Cholni qarg'ay boshladи kampir:
«Ey tentak chol, go'l, devona chol!
Ololmabsan baliqdan to'lov!
Hech bo'lmasa bitta tog'ora –
So'rab olmaysanmi undan sen,
Tog'oramiz teshik-ku axir!»
Chol jo'nadi zangor dengizga,
Mavj urmoqda dengiz qarasa.
Ham chaqirdi baliqni suvdan,
Baliq chiqib so'radi undan:
«Nima kerak senga, chol bobo?»
Ta'zim bilan javob berdi chol:
«Podsho baliq, holimga achin,
Xo'п urishdi kampirim meni.
Tinchlik bermas, qariding demas,
Kerak emish yangi tog'ora.
Tog'oramiz teshilgan, axir».
Oltin baliq aytadi javob:
«Qayg'urmagil, tangri yor bo'lsin,

Borgil, yangi tog‘orang bo‘lur!»
 Chol qaytsaki kampir yoniga,
 Tog‘oralik bo‘libdi kampir.
 Lekin urishdi kampir battarraq:
 «Ey tentak chol, go‘l, devona chol!
 Kir tog‘ora so‘rab oldingmi?
 Kir tog‘ora mol bo‘larmidi?
 Jo‘na, tentak, baliqqa borgin.
 Ta’zim qil-u uy so‘rab olgin».«
 Chol jo‘nadi zangor dengizga,
 (Zangor dengiz loyqalangandi.)
 Chaqirdi u baliqni suvdan,
 Baliq chiqib so‘radi undan:
 «Nima kerak senga, chol bobo?»
 Ta’zim qilib, shunday dedi chol:
 «Podsho baliq, holimga achin,
 Meni kampir qarg‘adi battar,
 Tinchlik bermas, qariding demas.
 Jag‘i tinmas, uy so‘rar nuql».«
 Oltin baliq aytadi javob:
 «Qayg‘urmagil, tangri yor bo‘lsin.
 Borgil, uy ham bo‘ladi nasib!»
 Yerto‘lasi tomon qaytsa chol:
 Yerto‘ladan iz ham qolmabdi.
 Mo‘rilari g‘ishtdan, oqlangan,
 Eman yog‘ochidan yasalgan –
 Darvozали bir uy turibdi,
 Uy yonida mehmonxona bor.
 Derazaning yonida esa,
 O‘tiribdi kampir taltayib.
 Qarg‘amoqda cholni battarraq:
 «Ey tentak chol, go‘l, devona chol!

Kelib-kelib uy so'rabsan-da!
Jo'na darrov baliq yoniga,
Ta'zim qilgil unga sen tag'in,
Qora dehqon bo'lmayman ortiq.
Men begoyim bo'lish istayman!»
Chol jo'nadi zangor dengizga,
(Dengiz notinch, to'lqin urmoqda.)
Chaqirdi u baliqni suvdan.
Baliq chiqib so'radi undan:
«Nima kerak senga, chol bobo?»
Ta'zim qilib, chol shunday dedi:
«Podsho baliq, holimga achin,
Kampirni jin urdi battarроq.
Tinchlik bermas, qariding demas,
Qora dehqon bo'lmasmish ortiq,
U begoyim bo'lish istarmish!»
Oltin baliq aytadi javob:
«Qayg'urmagil, tangri yor bo'lsin».
Chol qaytdi-ku kampir yoniga,
Nima ko'rар? Baland bir saroy,
Peshayvonda turar kampiri.
Suvsar po'stin uning egnida,
Boshida ham alvon dakana.
Qator-qator inju bo'ynida,
Qo'llarida oltin uzuklar.
Oyog'ida qirmizi etik.
Atrofida oqsoch xotinlar,
Qoq o'rtada kampir turardi,
Sochlardan sudrab urardi.
Kampiriga so'z qotdi chol:
«Salom, aslzoda begoyim,
Ko'ngling endi to'ldi, shekilli?..»

Kampir unga o'shqirdi battar,
 Otxonada ishlashga soldi.
 O'tdi hafta ketidan hafta,
 Kampir tag'in mindi qahriga,
 Baliq tomon yo'lladi cholni:
 «Tez bor, ta'zim qilgil baliqqa!
 Ortiq men begoyim bo'lmayman,
 Podsho xotin bo'lish xohlayman».
 Qo'rqib ketdi chol, shunday dedi:
 «Eshakmiya yedingmi, kampir?
 Yurish-turish nima, bilmaysan.
 Podsholik masxara bo'ldimi?»
 Kampir battar mindi qahriga,
 Chol yuziga tarsaki urdi:
 «Qora dehqon, qanday botinding,
 Kim qo'yibdi senga so'z aytmoq.
 Menga – menday begoyimga-ya?
 Yaxshilikcha jo'nab qol, deyman,
 Jo'natgayman bog'lab, bormasang».
 Chol dengizga qarab yo'l soldi.
 (Zangor dengiz qora rang oldi.)
 Chaqirdi u baliqni suvdan,
 Baliq chiqib so'radi undan:
 «Nima kerak senga, chol bobo?»
 Ta'zim qilib, so'z aytdi chol:
 «Podsho baliq, holimga achin,
 Kampir tag'in boshladi g'avg'o
 Bo'lmas emish ortiq begoyim,
 Bo'lar emish erkin malika!»
 Oltin baliq beradi javob:
 «Qayg'urmagil, tangri yor bo'lsin,
 Mayli, kampir bo'lar malika».



Chol qaytdi tez kampir yoniga,
Qarasaki, shohona qasr.
Qasr to'rida ko'rinar kampir –
O'tirardi malika bo'lib,
Xizmatida beklar, amirlar,
Asl sharob quyib bermoqda
Ham malika quymoq yemoqda.
Atrofida talay yasovul,
Yelkalarda oyboltalari,
O'rab turar juda bahaybat.
Buni ko'rib qo'rqib ketdi chol
Va so'z aytar yetti bukilib:
«Savlatli malika, salomalaykum!
Shoyad endi to'lgandir ko'ngling?»
Qayrilib ham boqmadi kampir.
Tez haydang deb buyurdi, xolos.
Sakrab turdi beklar, amirlar,
Cholni sudrab, haydab soldilar.
Yasovullar eshik yonida
Sal bo'lmasa chopa yozdilar.
Mazax qilib qoldi olomon:
«Qilig'ingdan topding, nodon chol!
Bundan keyin bo'lg'usi saboq:
O'z ko'rpannga qarab cho'z oyoq!»
O'tdi hafta ketidan hafta,
Kampir battar mindi qahriga.
Erin izlar, chopar yuborib,
Cholni topib keldilar axir.
Kampir shunday dedi choliga:
«Jo'na tag'in baliq yoniga,
Ta'zim qilib, o'tingil darrov.
Bo'lmagayman ortiq malika

Dengiz shohi bo'lish istayman.
 Dengiz-okeanda yashayman,
 Xizmatimda tursin baliq ham,
 Baliq bo'lzin menga xizmatkor».«
 Botinolmas so'z aytishga chol,
 Bo'la olmas kampir so'zini.
 Tag'in bordi zangor dengizga.
 Qora quyun ko'rар dengizda.
 To'lqinlar o'shqirar g'azabkor,
 Ham to'lg'anar, ham uvlar tinmay.
 Chaqirdi u baliqni suvdan,
 Baliq chiqib so'radi undan:
 «Nima kerak senga, chol bobo?»
 Ta'zim qilib, shunday dedi chol:
 «Podsho baliq, holimga achin,
 Jonga tegdi la'nati kampir,
 Ortiq bo'lmas emish malika,
 Dengiz shohi bo'lish istarmish
 Va dengizda yashash istarmish.
 Sen ham borarmishsan xizmatga,
 Bo'larmishsan unga xizmatkor».«
 Bitta so'z ham demadi baliq,
 Suvga urib dumini faqat
 G'oyib bo'ldi dengiz tagiga.
 Javob kutib turdi sho'rlik chol,
 Uzoq qolib dengiz bo'yida...
 Qaytdi kampir yoniga axir,
 Ko'rsa, tag'in o'sha yerto'la.
 Bo'sag'ada o'tirar kampir,
 Qarshisida teshik tog'ora.

Mirtemir tarjimasi

O'LIK BEKACH VA YETTI BAHODIR HAQIDA ERTAK

Yoriga aytib vido,
Otlandi safarga shoh.
Darichada malika
Uni kutadi yakka.
Kecha-yu kunduz kutmish,
Yo'llariga ko'z tiknish.
Kuta-kuta nihoyat
Ko'zlar tolmish g'oyat.
Lekin, yordan yo'q nishon!
Faqat quturar bo'ron.
Qorlarga to'l mish har yoq,
Hamma yer bo'l mish oppoq...
Yor yo'lida ko'z uzmay,
O'tib ketmish to'qqiz oy.
Hayit kechasi xudo
Unga qiz etmish ato.
Erta tongda, ko'p uzoq –
Kutilgan aziz qo'nog: –
Shoh qaytmishdi safardan,
Begona o'lkalardan.
Malika shohga boqib,
Xo'rsinipti dil yoqib.
Shodlanganidan chunon,
Tushga borib bermish jon.
Shoh uzoq tortmish alam,

Ne chora? Banda u ham:
 Bir yil tushday o'tibdi.
 Shoh boshqa xotin opti.
 Chinakam ham u dilbar
 Malikalarga o'xshar.
 Oppoqqina, xushqomat,
 Aql-u didda alomat,
 Lekin mag'rur va baxil,
 Erka, kunchi, qora dil.
 Sepi bor ekan – ko'zgu,
 Ko'p hikmatli ekan u;
 Ko'zgu so'zlay olarkan,
 Malika quvonarkan.
 Faqatgina u bilan,
 Hikmatli ko'zgu bilan
 Xursand, hazillasharkan,
 Zeb berib, so'zlasharkan:
 «So'zla aziz oynajon,
 Haqiqatni qil bayon:
 Men emasmi dunyoda
 Hammadan ham ziyoda.
 Oppoq, go'zal va yaxshi,
 Yuzim yuzlarning naqshi?»
 Oyna derkan javoban:
 «Shubhasiz dunyoda san
 Oppoq, go'zal va yaxshi,
 Yuzing yuzlarning naqshi».
 Malika qah-qah urib,
 Ishva qilib, buralib,
 Suzib ko'zi-qovog'in,
 Qirsillatib barmog'in,

Qo'l belda, kerilarkan,
Ko'zguga termilarkan.
Va lekin yosh bekach ham
Ohista bo'lib ko'rkam,
Kun sayin o'saket mish,
O'sib kamolga yet mish.
Yuzlari oq, qora qosh,
Xushfe'l, rahmdil, yuvosh.
Malikaga kuyov ham
Topila qol mish shu dam;
U - shahzoda Yelisey,
Asilzoda Yelisey.
Sovchiga shoh ko'nipti,
Darrov sep ham unibdi:
Yetti savdo shahari,
Yuz qirq koshon alarga,
Yuz ko'rishga otlanib,
Malika xo'b bezanib,
Ko'zguga termilipti,
Unga savol beripti:
«Men emasmi dunyoda
Hammadan ham ziyoda,
Oppoq, go'zal va yaxshi,
Yuzim yuzlarning naqshi?»
Ko'zgu depti shu mahal:
«Hech shubhasiz sen go'zal,
Lekin bekach dunyoda.
Hammadan ham ziyoda!
U oq, go'zal va yaxshi,
Yuzi yuzlarning naqshi». Malika sapchib ket mish,

Qo'llarini musht etmish.
 Ko'zguga bir tushirmish,
 Yer tepiniib, do'q urmid:
 «Ah, past ko'zgu, yaramas.
 So'zlarining bari g'araz.
 Qanday menga teng bo'l sin?!

Ta'zirin beray, o'l sin.
 O'smay o'lgur, yaramas!
 Oqligi bejiz emas:
 Onasi ekan bo'g'oz,
 Qorga telmirgan, xolos.

Ayt, mumkinmi hech mahal.
 U bo'lsa mendan go'zal?
 Uning qanday haqqi bor?
 Men go'zalman: bo'l iqror.
 El-u yurtni izlasang,
 Jahonni sinchiklasang,
 Yo'qdir menga teng suluv.
 Shundaymi?»

Depti ko'zgu:
 «U baribir dunyoda
 Hammadan ham ziyoda,
 Oppoq, go'zal va yaxshi,
 Yuzi yuzlarning naqshi!»

U, nihoyat o'rtanib,
 Hasad o'tida yonib,
 Ko'zguni tez olipti,
 Ham sandiqqa solipti,
 Chaqirib qora qizni,
 Ham shoh qizi o'ksizni:
 «Olib borib to'qayga,
 Odamsiz, xilvat joyga,



Oyoq-qo'lini bog'la,
Tiriklay bag'rin dog'la! –
Deb aytipti cho'riga, –
Yem bo'lzin u bo'riga».
Yovuz xotinga, ayting, –
Shaytonmi, jin kelar teng?
Chora yo'q. Qora qiz ham
Shoh qizi bilan ildam
Jo'nab ketmish to'qayga,
Yetmishlar xilvat joyga,
Va bekach payqab qolmish,
Dahshat ichida tolmish
Ham yolbormish: «Panohim?
So'zla, nedur gunohim?
Qizgina rahm et menga!
Malika bo'lsam, senga –
Yaxshiliklar qilarman».
Qiz uni sevganidan,
Band aylamay, o'ldirmay,
Qo'yib yubormish shunday
Deb: «Qayg'urma, omon bo'!!»
Saroy tomon solmish yo'l.
Malika so'rmish jadal:
«Xo'sh? Qayoqda u go'zal?»
«To'qayda o'zi yolg'iz», –
Deb javob qaytarmish qiz, –
«Bog'liqdir qo'l-oyog'i,
Yirtqich yo'liqqan chog'i,
Azobi kam bo'ladi,
Osongina o'ladi».
Shoh qizi yo'qolipti! –
Deb xabar tarqalipti.

Qiziga shoh chekmish g'am.
 Shahzoda Yelisey ham
 Xudodan madad tilab,
 Yo'nga tushmish so'roqlab
 Aziz mehribonini,
 Go'zal qalliqjonini.
 Qalliq adashganicha,
 To'qayda butun kecha,
 Yurib-yurib tolipti,
 Bir ko'shkka keb qolipti.
 Bir it chiqib shu mahal
 Tinchlanipti hurib sal:
 Darvozadan kirmish qiz,
 Hamma yoq jimjit, beiz.
 It yurar erkalanib,
 Shoh qizi ham shaylanib,
 Yo'lak tomon olmish yo'l,
 Halqaga cho'zipti qo'l;
 Eshik ochilib ravon,
 Qiz kirsaki, charog'on -
 Bir uy: unda gilamlar,
 Osig'liqmish sanamlar,
 Go'zal pechkasi bormish,
 So'rilar o'ymakormish.
 Qiz ko'rsaki, bu mazgil
 Mehribon va rahmdil
 Odamlarning mazgili;
 Bu yerda uning dili
 Ozor topmasa kerak,
 Lek, hech kimdan yo'q darak.
 Uylarga bir-bir kirmish,
 Yig'ishtirmish, supurmish,



Xudo uchun yoq mish sham,
Isitmish pechkani ham,
So'riga chiqib asta,
Uxlab qol mish birpasda.
Yetganda tush pallasi,
Kelmish odam sharpasi;
Kirmish yetti bahodir,
Mo'ylovdor, yetti nodir.
Boshliq depti: «Ajabo!
Har yoq toza va barno.
Kimdir yig'ishtiripti,
Bizni kutib turipti,
Kim u? Chiq yonimizga,
Chin o'rtoq bo'lgin bizga.
Keksa chol bo'lsang agar,
Bo'lursan bizga padar.
Yigit bo'lsang, biz seni
Deylik tutingan ini.
Kampir bo'lsang – onasan,
Hurmatlarga qonasan.
Agar bo'lsang go'zal qiz,
Bo'lgin aziz singlimiz».·
Shoh qizi ham shu zamon,
Tushmish yigitlar tomon,
Ularni izzat qilib,
Salom bermish egilib:
Taklif etilmasdanoq,
Bo'lgani uchun qo'noq,
U afv so'rab, qizarmish,
Ham uyalib bo'zarmish.
Payqaptilar so'zidan –
Bu qiz – shoh qizi ekan;



Uni to'rga o'tqizib,
 Nozi-ne'matlar yozib,
 Qadah to'ldirishipti,
 Patnisda berishipti.
 Qiz rad etmish sharobni,
 Zangori mayi-nobni;
 Somsadan olib biroz
 Tatigan bo'pti, xolos.
 «Charchadim, – deb, – juda ham»,
 So'rapti olmoqqa dam.
 To'rdagi bir xonada,
 Keng, yorug' koshonada
 Uni qoldirishipti,
 O'zлari chiqishipti.
 Kunlar o'tmish izma-iz,
 Va lekin yosh bekach qiz
 O'rmonda yashar kushod,
 Bahodirlar bilan shod.
 Bahodirlar ko'p inoq,
 Turishib har sahar choq
 Chiqishar sayr etmoqqa,
 Ko'k o'rdaklar otmoqqa...
 Bu zamon bizning shoh qiz
 Saroyda qolib yolg'iz,
 Supurib, sidirarkan,
 Taomlar pishirarkan.
 Bahodirlar bilan u
 Yashar ekan ko'p totuv.
 Kunlar shunday o'tarkan,
 Kun o'tib, kun yetarkan.
 Qizni jo'ralar chandon
 Sevib qolmishlar jondan,



Bir kuni erta bilan,
Yetti bahodir birdan
Qiz uyiga kiripti,
Boshliq: «E dilbar, – depti, –
Bizlarning singlimizsan,
Bu narsa senga ravshan.
Bizlar yetti jo'ramiz,
Seni yaxshi ko'ramiz.
Har birimiz ham sani
Jon deymiz yor qilgani.
Biroq iloj yo'qdir hech,
Bu mushkulni o'zing yech!
Birimizni yor qilgil.
Boshqalarga bo'l singil:
Nega boshing chayqaysan?
Yo buni rad etgaysan?
Yo tovar qo'l emasmi,
Senga ma'qul emasmi?»
– «Sofdil qahramonlarim,
Aziz og'ajonlarim», –
Deb shoh qizi so'z boshlar, –
«Yolg'on so'zlasam agar,
Tiriklay yerga kiray.
Men qayliqman, ne qilay?
Men uchun baravarsiz,
Aqlii, dilovarsiz,
Bilingki, ko'ngildan man –
Barchangizni sevaman:
Biroq o'zgaga bu bosh
Mangu etilgan yo'ldosh.
Azizdir hammadan ham
U Yelisey shahzodam».



Jo‘ralar jim qolipti,
 Boshni qashlab olipti.
 «So‘rashning aybi yo‘qdir,
 Oy bekach, bizni kechir», –
 Depti ulkan pahlavon, –
 «Bunday bo‘lsa hech qachon!
 U haqda ochmam og‘iz».
 – «Xafamasman», – depti qiz, –
 «Mening ham rad javobim –
 Ayb etmangiz». – Ular jim.
 Ta’zim bajo etmishlar,
 Asta chiqib ketmishlar.
 Shunday qilib, ular bot
 Kechirmishlar tinch hayot.
 Yovuz beka bu zamon,
 Bekachni eslagan on
 Tura olmapti chidab:
 Ko‘pdan beri arazlab
 Yurarkan ko‘zgusidan:
 Endi chiqib esidan
 Ko‘zgu tomon yuz tutmish,
 G‘azabini unutmish.
 U yana ham kerilib,
 Depti tabassum qilib:
 «Salom! So‘zla, ko‘zgujon,
 Haqiqatni et bayon:
 Men emasmi dunyoda
 Hammadan ham ziyoda,
 Oppoq, go‘zal va yaxshi,
 Yuzim yuzlarning naqshi?»
 Javob bermish oynajon:
 «Go‘zalliging begumon;



Biroq yashaydi bir qiz,
Hech qanday hashamatsiz,
Emanlar makonida,
Bahodirlar yonida.
U sendan ham yaxshidir,
Go'zallikning naqshidir».«
Beka to'kmish qahrini –
Qora qizga: – «Meni sen
Aldashga qanday jur'at
Etolding, – deb, – kasofat?»
Qora qiz qolib nochor,
Bariga bo'lmish iqror.
Yovuz beka tutaqib,
Uni dahshatda yoqib,
Deptı: «Yo o'ldirgaysan,
Yoki, o'zing o'lgaysan!»
Yosh malika bir kuni
Kutib og'alarini,
Yolg'iz o'tirar ekan.
Charxin yigirar ekan,
Yo'lakda g'azab bilan
It hurib qolmish birdan.
Qiz qayrilib qarasa,
Gado turipti. «Ena,
Sabr qil pichagina, –
Deptı qiz darichadan, –
Hayday itni hozir man,
Keyin senga, enajon,
Olib chiqay xayr-ehson».«
Qizga kampir der shu dam:
«Oh, jon bolam, qizginam!
Iting jonimni oldi,



O'ldirishga oz qoldi.
 Irg'ishlariga bir boq!
 Chiq yonimga, chiq tezroq».
 Shoh qizi ham non olib,
 Chiqmoq uchun qo'zg'alib.
 Zinadan tushmasdanoq
 It yetib kepti shu choq,
 Hurib erkalanipti,
 Oyoqqa surkanipti.
 Yo'l bermapti o'tishga,
 Kampir sari yetishga.
 Kampir kelayin desa –
 Qiz yoniga, it esa
 Vahshiy hayvonlarsimon,
 Tashlanarmish u tomon.
 «Ajabo, bu nima sir?
 Yaxshi uxlamagandir», –
 Deb bekach so'z qotipti,
 «Ma, ol!» deb non otipti.
 Tutib opti shum kampir:
 «Senga behad tashakkur,
 Tangri qo'llasin doim;
 Sen ham tutib ol, oyim!»
 Bekachga to'lib pishgan,
 Oltinday xo'b yetishgan
 Olma uchib boripti,
 It sakrab, ingranipti...
 Ilidolipti oy qiz
 Ikki qo'llab uni tez.
 «Gar siqilsang mabodo,
 Yegin, meni qil duo» –
 Deb kampir egilipti,



Va ko'zdan yo'qolipti...
Birga shoh qizi bilan
Zinadan chiqar ekan,
Qalbi g'amga to'lganday,
«Tashla!» demak bo'lganday
It g'amgin telmiripti,
Qizga qattiq huripti.
Qiz itni erkalapti,
Yumshoq qo'l-la silapti:
«Ne bo'ldi senga Lochin?
Yot endi!» o'zi lokin –
Uyga kirib ketipti,
Eshikni berkitipti.
Xo'jalarin chidamsiz
Kutmak uchun bekach qiz
Charxiga o'tirsa ham,
Lekin o'zi dam-badam
Olmaga termilarkan,
Faqt uni ko'rarkan.
Olma to'lib pishipti,
Juda ham yetishipti:
Xushbo'y, bejirim, tarang,
Qip-qizil va tilla rang,
Bolga to'lib turarkan!
Urug'i ko'rinarkan...
Ovqatgacha qalamqosh
Kutmoqchi bo'pti, bardosh, –
Berolmapti sira ham,
Olmani olib shu dam,
Labiga tegizipti,
Tishlab, bo'lak uzipti
Ham yepti uni asta...

